



O'ZBEKISTON ARXIVLARINI RAQAMLASHTIRISH MUAMMOLARI

Ramazonov Hikmatulla Rustam o'g'li

ANNOTATSIYA: *Ushbu maqolada O'zbekiston arxivlarida raqamlashtirish jarayonining holati, unga oid me'yoriy-huquqiy hujjatlar, texnik va tashkiliy muammolar, hamda kadrlar va infratuzilmaviy cheklovlar tahlil qilingan. Bundan tashqari, yechim sifatida ilg'or xorijiy tajribalar, davlat-xususiy sheriklik va yuqori malakali mutaxassislar tayyorlash zarurati asoslab berilgan. Maqola raqamli arxivshunoslik sohasida tadqiqot olib borayotgan mutaxassislar uchun amaliy va nazariy ahamiyatga ega.*

Kalit so'zlar: *arxiv, raqamlashtirish, OCR texnologiyalar, vizualizatsiya, kadrlar, raqamli tizimlar, innovatsion texnologiyalar, axborot xavfsizligi, blokcheyn texnologiyalar*

Kirish. Bu sohadagi yondashuvlar faqat texnologik emas, balki siyosiy, madaniy va ilmiy omillar bilan ham bog'liq. Chunki har bir hujjat – bu tarixiy xotiraning bir bo'lagi bo'lib, uni saqlab qolish va keng jamoatchilikka taqdim etish raqamlashtirish orqali imkoniyat kasb etadi.

So'nggi yillarda O'zbekiston Respublikasida arxiv materiallarini raqamlashtirish ishlari davlat siyosatining muhim yo'nalishiga aylandi. Misol tariqasida Prezidentimizning 2018-yildagi Oliy Majlisga murojaatnomasidagi quyidagi fikrlariga nazar salsak “Iqtisodiyotning barcha sohalarini raqamli texnologiyalar asosida yangilashni nazarda tutadigan Raqamli iqtisodiyot milliy konsepsiyasini ishlab chiqishimiz kerak. Shu asosda “Raqamli O'zbekiston-2030” dasturini hayotga tatbiq etishimiz zarur”¹ Zamonaviy texnologiyalar taraqqiyoti, hujjatlarning saqlanishini ta'minlash, ulardan foydalanishni yengillashtirish va ularni xalqaro axborot tizimlariga integratsiyalash kabi ehtiyojlar raqamlashtirishning dolzarbligini oshirmoqda. Shu bilan birga, ushbu jarayonda

¹ <https://president.uz/oz/lists/view/2228>



qator muammolar, texnik, tashkiliy, huquqiy va ilmiy-metodik to'siqlar mavjud. Ushbu maqolada raqamlashtirishga oid me'yoriy-huquqiy asoslar va yuzaga kelgan muammolar tahlil qilinadi.

Ho'sh, raqamlashtirish nima va u nimaga kerak? Raqamlashtirishning asosiy afzalliklaridan biri bu – saqlash xavfsizligi. Fizik eskirish, yong'in yoki namlik kabi xavf-xatarlardan himoyalangan raqamli hujjatlar uzoq muddat saqlanishi mumkin. Bundan tashqari, raqamli arxivlar orqali hujjatlar soniyalar ichida topiladi, ulardan bir vaqtning o'zida bir nechta foydalanuvchi foydalanishi mumkin. Bu esa vaqt va mehnat sarfini kamaytiradi. Shu bilan birga, raqamli tizimlar ochiqlik va shaffoflikni ta'minlab, davlat boshqaruvida ham, ilmiy faoliyatda ham samaradorlikni oshiradi. Shu sababli bu jarayon o'ta murakkab va mashaqqatlidir.

Elektron arxiv – bu hujjatlar, fayllar va boshqa turdagi ma'lumotlarni raqamli shaklda saqlash, boshqarish va ulardan samarali foydalanish imkonini beruvchi maxsus tizimdir. "Elektron arxivlar – bu zamonaviy texnologiyalar asosida tashkil etilgan, hujjatlarni raqamli shaklda saqlash, boshqarish va ulardan foydalanishni ta'minlovchi tizimlardir"² Unda kalit so'zlar, metama'lumotlar va turli tasniflash tizimlari orqali foydalanuvchilar o'zlariga kerakli hujjatlarni qisqa vaqt ichida topishlari mumkin. "Elektron arxiv tizimlaridagi ilg'or qidiruv funksiyalari foydalanuvchilarga metama'lumotlarni indekslash, kalit so'zlar bo'yicha qidirish va tasniflash tizimlari orqali hujjatlarni samarali topish imkonini beradi"³.

O'zbekistonda arxiv hujjatlarini raqamlashtirish bevosita Covid 19 virusi bilan bog'liqdir. Ya'ni pandemiya davrida davlat idoralari, ilmiy muassasalar va kutubxonalar masofadan ishlash rejimiga o'tdi, bu esa arxiv ma'lumotlarining raqamli formatda mavjud bo'lishini dolzarb muammoga aylantirdi. Natijada, arxiv hujjatlaridan onlayn foydalanish ehtiyoji oshdi, bu esa raqamlashtirishni tezlashtirish zaruriyatini tug'dirdi. Ilmiy tadqiqotchilar, talabalar va jurnalistlar

² Nazarov A.Yo., Buriyeva X.A., Abbasov B.B. Arxiv ishi nazariyasi va amaliyoti. – Toshkent: Innovatsion rivojlanish nashriyoti-matbaa uyi, 2023. – B. 45.

³ Duranti L., Rogers C. Trusting Records: Legal, Historical, and Diplomatic Perspectives. – Kluwer Academic Publishers, 2012. – P. 75.



arxivlarga bevosita bora olmagan sababli elektron resurslarga bo'lgan talab ko'paydi. Bu holat O'zbekiston Milliy arxivi, shahar va viloyat arxivlarini skanerlangan hujjatlarni yaratishga va ularga onlayn kirishni ta'minlashga undadi. Bu bo'yicha bir nechta normativ-huquqiy hujjatlar ham qabul qilindi. Ular orasida O'zbekiston Respublikasi prezinetining <O'zbekiston Respublikasida arxiv ishi va ish yuritishni takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida>gi farmoni (2019-yil) Prezidentning 2020-yil 24-iyundagi PQ-4750-sonli qarori², hamda Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 87-son qarori³ muhim o'rin tutadi. Bu hujjatlar raqamlashtirish maqsadi, tartibi va texnik talablari bo'yicha asosiy yo'riqnomani beradi. Ammo ular amaliyotda to'liq va izchil bajarilmasligi, hujjatlarning real ahvoli bilan zid kelishi muammolarni yuzaga keltirmoqda. Ko'plab arxivlarda mavjud bo'lgan hujjatlar sifatsiz, shikastlangan yoki o'chgan holatda bo'lib skanerlash texnologiyalarimiz muvaffaqiyatsizlikka uchramoqda. Bundan tashqari mutaxassislar va malaka masalasi, ya'ni axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini yaxshi biladigan mutaxassislar raqamlashtirish sifatiga sezilarli ta'sir qiladi. Misol uchun Arxiv hujjatlari va yig'majildlar ro'yxatlarini raqamlashtirish va indeksatsiyalashning alohida xususiyatlari shundaki bir nechta adadda chop etiladigan kitoblardan farqli ravishda arxiv hujjatlarining deyarli har biri noyobdir. Raqamlashtirishda eng katta mas'uliyat operatorlarda bo'ladi, u hujjatning alohida holatini ko'rishi kerak (eskirganlik, zararlanganlik, matnning tikilgan qismiga o'tib ketganligi, tikilish xususiyatlari va boshqalar) va uskunani tezkor sozlash yoki hujjatni restavratsiyaga berish kerak. Ko'pincha raqamlashtiriladigan arxiv fondlarida aralash yig'majildlar uchraydi. Bu qalin muqovali standart yig'majild bo'lsada uning ichida A0 formatgacha hujjatlar uchraydi. Bunday yig'majildlarni ajratish mumkin emas. Ijrochi bunda planetar turdagi keng formatli skanerlardan foydalanishni bilishi kerak. Yuqorida sanab o'tilgan holatlarda malakali xodimlarning o'рни muhim ahamiyatga ega. Yevropa davlatlarida arxivshunoslik bilan raqamli texnologiyalarni birlashtirish bo'yicha alohida magistratura dasturlari mavjud bo'lsa, O'zbekistonda bu yo'nalish endigina shakllanmoqda. Shu sababli malakali kadrlar yetishmovchiligi dolzarb muammoga aylanmoqda.



Raqamlashtirish texnik ish bo'lishiga qaramay, uni bajaruvchi xodimlar ko'pincha bu soha bo'yicha yetarli bilimga ega emas. Axborot texnologiyalarini biladigan mutaxassislar arxivlarga jalb qilinmagan. Oliy ta'limda bu soha bo'yicha alohida yo'nalishlar yetarli emas. Natijada, jarayon sifatsiz yoki sust amalga oshirilmoqda. Davlat budjeti hisobidan raqamlashtirishni moliyalashtirish yetarli emas. Arxivlarning internet tezligi past, bulutli texnologiyalar joriy qilinmagan. Bundan tashqari, ilg'or dasturiy ta'minot va texnik yordam tizimlari yo'q. Bundan tashqari, raqamlashtirish jarayonini moliyaviy qo'llab-quvvatlash uchun donor tashkilotlar bilan hamkorlikdagi grant dasturlari yo'lga qo'yilishi, raqamli infratuzilmani markazlashtirish orqali viloyat arxivlariga yordam ko'rsatilishi zarur. Yuqorida sanab otilgan muammolar oz yechimini topishi uchun O'zbekiston Respublikasining "Arxiv ishi to'g'risida"gi Qonuni 7-bandida quyidagilar belgilab qo'yilgan:

arxiv ishi va ish yuritish faoliyatiga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini jadallik bilan joriy etish, O'zbekiston Respublikasi Milliy arxiv fondi hujjatlarini bosqichma-bosqich raqamlashtirish va sug'urta nusxalarini yaratish;

arxiv hujjatlarini maxfiylikdan chiqarish ishlarini faollashtirish orqali arxiv axborotlaridan foydalanuvchilar sonini kengaytirish;

arxiv xizmatlarini bosqichma-bosqich Davlat xizmatlari markazlari hamda Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali orqali ko'rsatilishini tashkil etish;

arxivlarning moddiy-texnika bazasini mustahkamlash hamda infratuzilmasini yanada modernizatsiya qilish, arxiv hujjatlarini jamlash, davlat hisobiga olish, saqlash va ulardan foydalanishning zamonaviy usullarini joriy etish;

arxiv ishi va ish yuritish sohasidagi xodimlarini tanlash, tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirishning ilg'or va shaffof tashkiliy-huquqiy mexanizmlarini tatbiq etish yo'li bilan kadrlar siyosatini shakllantirishning zamonaviy tamoyillarini joriy qilish;



soha xodimlarini moddiy rag‘batlantirishni yaxshilash uchun qulay shart-sharoitlar yaratish;⁴

Yuqorida sanab o‘tilgan muammolarga yechim sifatida uzoq muddatli strategiya ishlab chiqish, oliy ta’limda maxsus yo‘nalishlar ochish, davlat-xususiy sheriklik asosida zamonaviy texnologiyalar joriy etish ya’ni kuchli OCR texnologiyalari, vizualizatsiya (ma’lumotlarni ko‘rsatish va tahlil qilish uchun qulay interfeys) va sun’iy intellektidan foydalanish, kadrlar malakasini oshirish hamda axborot xavfsizligini ta’minlash orqali muammolarni kamaytirish mumkin. Bundan tashqari arxiv hujjatlarini raqamlashtirish jarayonini jadallashtirish uchun tegishli idora va tashkilotlar o‘z faoliyatiga doir hujjatlarni raqamlashtirib borishi ustuvor ahamiyatga ega bo‘ladi. Bundan tashqari, ma’lumotlar saqlanishini mustahkam himoya qilish uchun blokcheyn texnologiyasini qo‘llash zarur. Blokcheyn – ma’lum qoidalar asosida tuzilgan ma’lumotni o‘z ichiga olgan bloklarning doimiy ketma-ket zanjiridir. Ushbu texnologiya asosida har bir elektron hujjatning yaratilgan vaqti, muallifi, mazmuni va topshirilganligi haqida izchil va o‘zgarmas yozuv shakllantiriladi. Blokcheyn ma’lumotlarni markazlashtirmasdan saqlaydi, shu sababli xakerlik hujumlariga chidamli bo‘ladi. Hujjatlar bir marta blokcheynga yozilsa, u o‘chirib yoki o‘zgartirib bo‘lmaydi. Raqamli hujjatlarni blokcheynga joylashtirish orqali ularni yaroqliligini va asl nusxa ekanligini tekshirish osonlashadi⁵. Ayni vaqtda Estoniya davlatida davlat xizmatlari, sog‘liqni saqlash hujjatlari va fuqarolik ma’lumotlari blokcheyn asosida boshqariladi. Gruziyada esa kadastr va yer reyestri hujjatlari blokcheynga o‘tkazilgan.

Xulosa. Raqamli texnologiyalar asrida arxiv hujjatlarini raqamlashtirish — O‘zbekiston arxiv sohasining taraqqiyoti uchun muqarrar bosqichdir. Kelgusida bu jarayonni tizimli yo‘lga qo‘yish uchun qonunchilikni takomillashtirish, texnik infratuzilmani rivojlantirish, yuqori malakali mutaxassislar tayyorlash, xususan, arxivshunoslik va axborot texnologiyalari yo‘nalishida zamonaviy ta’lim dasturlarini joriy etish zarur. Davlat-xususiy sheriklik asosida ilg‘or texnologiyalar,

⁴ O‘zbekiston Respublikasida arxiv ishi va ish yuritishni takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida <http://lex.uz/docs/-4523373>

⁵ <https://trends.rbc.ru/trends/industry/5f05c0a79a7947aac5c7577a>



shu jumladan, OCR, vizualizatsiya va blokcheyn asosidagi yechimlarni qo'llash orqali raqamlashtirish samaradorligini oshirish mumkin. Shuningdek, arxivlar orasida yagona markazlashgan raqamli platforma tashkil etilishi, bulutli texnologiyalar, axborot xavfsizligi protokollari va xalqaro standartlarga mos dasturiy ta'minot bilan ta'minlanishi — bu sohaning barqaror rivojlanishini ta'minlaydi. Raqamli arxiv tizimining mukammallashuvi esa O'zbekistonning raqamli iqtisodiyot va elektron hukumat sari harakatida asosiy poydevorlardan biri bo'lib xizmat qiladi.

Raqamlashtirish O'zbekiston arxiv sohasida muqarrar bosqichdir. Bu boradagi ishlar tizimli bo'lishi, me'yoriy huquqiy asoslar bilan bir qatorda amaliy muammolarni bartaraf etuvchi mexanizmlar bilan boyitilishi lozim. Shundagina O'zbekiston zamonaviy raqamli arxiv tizimiga ega bo'lishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasida arxiv ishi va ish yuritishni takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida <http://lex.uz/docs/-4523373>
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 24-iyundagi PQ–4750-sonli qarori² – “Arxiv ishi tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida”.
3. Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 20-fevraldagi 87-son qarori³ – “O'zbekiston Respublikasi Milliy arxiv fondi hujjatlarini raqamlashtirish tartibi to'g'risida”.
4. UNESCO Memory of the World⁴ Programme. Digital preservation guidelines. 2017.
5. International Council on Archives (ICA). Principles and Functional Requirements for Records in Electronic Office Environments (2008).
6. A.M. Ergashev. Arxiv hujjatlarini raqamlashtirish: holat va istiqbollar. – Tashkent: 2023.
7. Nazarov A.Yo., Buriyeva X.A., Abbasov B.B. Arxiv ishi nazariyasi va amaliyoti. – Toshkent: Innovatsion rivojlanish nashriyoti-matbaa uyi, 2023. – B. 45.